

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

TASARRUFIDAGI ANIQ FANLARGA

IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA'LIM

MAKTABINING BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISI

ABDULLAEVA DILFUZANING

MATEMATIKA FANIDAN

BIR SOATLIK OCHIQ

DARS ISHLANMASI



Sinf: 1

Dars: Matematika

Mavzu: 80-89 gacha bo'lgan sonlar

Maqsad:

1. Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga 80-89 gacha bo'lgan sonlar haqida tushuncha berish.

2. Tarbiyaviy maqsad: Matematika fanining ahamiyatini misollar orqali yoritib berish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: Og'zaki sanash va hisoblash, shakllar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. Sonlarni sanash, o'qish, yozish va hisoblash va mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantirish

Darsda foydalaniladigan metodlar: og'zaki savol-javob, interfaol

Darsda foydalaniladigan jihozlar: texnik vositalar, slaydlar, ko'rgazmali va didaktik materiallar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism: a) o'quvchilarni darsga hozirlikini tekshirish

Og'zaki sanash mashqini o'tkazish.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash);

O'quvchilarning o'tgan mavzu ikki xonali so'zlar tarkibi yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash.

10 dan 100 gacha to'g'ri va teskari sanashni mashq qilish.

10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 100

100, 90, 80, 70, 60, 50, 40, 30, 20, 10

III. Yangi mavzu bayoni

80 81 82 83 84 85 86 87 88 89

O`quvchilarga 80-89 gacha bo`lgan sonlar haqida tushuncha berish. Xona birliklari haqida ma`lumot berish, misol va masala yechish.

O`nliklar	Birliklar		
8	1	sakson bir	81
	2	sakson ikki	82
	3	sakson uch	83
	4	sakson to`rt	84
	5	sakson besh	85
	6	sakson olti	86
	7	sakson yetti	87
	8	sakson sakkiz	88
	9	sakson to`qqiz	89

2. Bo`sh kataklarni to`ldiring:

8	1			8	4			8	6				
8	9					8	5					8	2

Masala sharti o`qiladi va yechiladi

3. Avtosaroyda 89 ta avtobus bor edi. Undan 9 tasi ertalab ishga chiqib ketdi. Avtosaroyda nechta avtobus qoldi?

Bor edi-89 ta avtobus

Ketdi- 9ta avtobus

Qoldi- ?ta avtobus

Yechish: $89-9=80$ ta avtobus

Javob: Avtosaroyda 80 ta avtobus qoldi

IV Mustahkamlash.

O`quvchilarga misol va masala yechishtirish orqali bilimlarini mustahkamlash.

4. $89 \square 80$ $80 \square 85$ $29 \square 29$ $74 \square 84$

5. Sonlarning yig'indisini hisoblang:

30 va 6, 20 va 7, 50 va 9, 80 va 3, 40 va 8.

Matematik diktant o'tkaziladi va misollar yechiladi

$30+6=36$ $20+7=27$ $50+9=59$ $80+3=83$

$40+8=48$

Noma'lum kamayuvchini ,ayriluychi va ayirmani topishga doir jadval yechiladi

Kamayuvchi	28	48		63		66	89
Ayriluvchi		40	5	3	8		
Ayirma	20		50		70	60	9

V. Darsga yakun yasash .O`quvchilarning 80-89 gacha bo`lgan sonlar yuzasidan olgan tushunchalarni umumlashtirish.

VI.O`quvchilarni rag`batlantirish. Faol ishtirok etgan o`quvchilarni rag`batlantirish.

VII.Uyga vazifa berish. 6-misolni bajarish yuzasidan tavsiyalar berish. 111-bet